



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 5**

**2026**

## **QASHQADARYO DO'PPILARDAGI ORNAMENTLARNING O'ZIGA XOS SEMANTIKASI**

**Toshboyeva Dilnavoz Abduraxmat qizi**

Jizzax davlat pedagogika universiteti, tayanch doktorant

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada Qashqadaryo do'ppichiligiga oid ornamentlarning badiiy-estetik xususiyatlari, ramziy ma'nolari, tarixiy shakllanish jarayoni hamda hududiy o'ziga xosligi tahlil qilinadi. Maqolada Qashqadaryo do'ppilarida uchraydigan naqsh va bezak elementlarining xalq dunyoqarashi, milliy qadriyatlari, urf-odatlar va ma'naviy tasavvurlari bilan bog'liqligi yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** ornament, iroqi, muqarnas, kandaxayol, islmiy naqsh, zoomorfik naqsh, geometrik naqsh, choparchin, zombiro'ya, popop anor nusxa.

## **СВОЕОБРАЗНАЯ СЕМАНТИКА ОРНАМЕНТОВ КАШКАДАРЬИНСКИХ ТЮБЕТЕЕК**

**Тошбоева Дилнавоз Абдурахмат кизи**

Джизакский государственный педагогический университет, базовый докторант

### **Аннотация**

В данной научной статье анализируются художественно-эстетические особенности, символическое значение, историческое формирование и региональное своеобразие орнаментов, характерных для кашкадарьинского тюбетеечного искусства. В статье раскрывается связь узоров и декоративных элементов, встречающихся на кашкадарьинских тюбетейках, с мировоззрением народа, национальными ценностями, обычаями, традициями и духовными представлениями.

**Ключевые слова:** орнамент, иракский, мукарнас, кандахайол, исламский узор, зооморфный узор, геометрический узор, чопарчин, зомбироя, копия граната попоп.

## **THE UNIQUE SEMANTICS OF ORNAMENTS IN KASHKADARYA DOPPI PATTERNS**

**Toshboyeva Dilnavoz Abdurakhmat qizi**

Jizzakh State Pedagogical University, Doctoral student

### **Abstract**

This scientific article analyzes the artistic and aesthetic features, symbolic meanings, historical formation, and regional specificity of ornaments related to the traditional skullcap-making art of Kashkadarya. The article highlights the connection between the patterns and decorative elements found on Kashkadarya skullcaps and the worldview, national values, customs, traditions, and spiritual perceptions of the people.

**Keywords:** ornament, Iraqi, muqarnas, kandakhayol, Islamic pattern, zoomorphic pattern, geometric pattern, choparchin, zombiroya, popop pomegranate copy.

O'zbek milliy kashtado'zligi amaliy san'atning eng qadimgi turlaridan biri bo'lib, u xalqning o'z turmush tarzini go'zal qilishga yordam beradi. Kashtachilik san'ati nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham shuhrat qozongan. O'zbek xalq ustalari qo'llari bilan tikilgan kashtado'zlik namunalari turli xorijiy mamlakatlarda, shuningdek, mamlakatimizning Farg'ona vodiysida faqat xonadonlarda emas, balki muzeylarda ham doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan. Hozirgacha buyumlar o'ziga xos go'zalligi, nafis bezaklarining rang-barangligi bilan kishilarni hayratga solib kelmoqda. Badiiy kashtachilik uzoq tarixga ega, buni arxeologik topilmalar va yozma manbalar isbotlab bermoqda. O'zbek kashtachiligi iqlim, tabiiy sharoit, muhit bilan bog'liq holda barcha kasb-hunarlar bilan birgalikda rivoj topgan. Kashtachilik san'atining eng qadimiysi saqlanmagan. XIV–XV asrlarga mansub miniatyuralar orqali kashtachilikning juda qadimdan rivojlanganligini ko'rish mumkin. Ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo Amir Temur saroyida o'zbek milliy kashta bezaklarini ko'rganini kundaligida yozib qoldirgan. 1467-yili Kamoliddin Behzod «Zafarnoma»ga ishlagan «Temur taxtda» miniatyurasida chodirga ishlangan kashtani ham aks ettirgan. XIX asrning ikkinchi yarmida kashta tikish mashinasining ixtiro etilishi kashtachilik korxonalarining vujudga kelishiga asos soldi. Mashinada kashtalarning ko'p ishlab chiqarilishi ularning badiiyligiga putur yetkazdi. Qo'l kashtalari unutila boshladi. Lekin ayrim xillarigina saqlanib qoldi. O'zbek kashtachiligi qo'shni xalqlar kashtachiligi ta'sirida boyidi va rivojlandi [1]. O'zbek kashtalariga nazar salsak, unda hind, xitoy, rus, afg'on, qozoq, qirg'iz va tojik kashtachiliklarining usul va uslublari

uchratamiz. Bu san'atda har bir millatning o'ziga xos eng ko'p qo'llaydigan naqshlari bo'ladi. Chunonchi, o'zbek kashtalarida o'simliksimon, geometrik hamda gul naqshlari ko'p bo'lsa, rus kashtachiligida geometrik, o'simliksimon shakllar, gullar, qush va mevalar ko'p tasvirlanadi. Hayvonlar, shox va tuyoqlarni eslatuvchi elementlar tasvirlanadi. Qadimiy an'analarga ko'ra, o'zbek qizlari — bo'lajak kelinchaklar seplari — har xil kashtachilik buyumlarini o'zlari tayyorlashlari lozim edi. Kashtalar qanchalik nozik, chiroyli bo'lsa, qayliq shunchalik yuqori baholanar edi. Qizlar 7–9 yoshidan boshlab kashta tikishga o'rgatilardi. Ular uch-to'rt yildan keyin mustaqil kashta tika boshlaydilar. Yetishib chiqqan kashtachilar o'zining san'ati va tabiatiga ko'ra go'zallik haqidagi orzularini ifodalashga harakat qilganlar.

Ma'lumki, Qashqadaryo va Shahrisabzning kashta tikilgan buyumlari o'zining yorqinligi, ranglarining uyg'unligi bilan ajralib turadi [2]. Bu erkaklarning do'ppilari, kuloh va turli-tuman ayollar buyumlari bo'lib, ular qarama-qarshi ranglar: yorqin qizil, to'q sariq, to'q jigarrang, binafsharang, yashil ranglar bilan ajralib turadi.

Do'ppilarning uchinchi guruhi — bu Shahrisabz va Kitobning gilamnusxa do'ppilari. O'ziga xos konussimon shakli, oldingi turning ko'p rangli va juda quyuq naqshlariga nisbatan umuman o'zgacha bo'lgan yorqin rangli naqshlari hamda uslubi bilan ajralib turadi. Shahrisabz do'ppilari boshqa turlardan texnikasi bo'yicha ham ajralib turadi. U iroqi choki bilan (xoch va yarimxoch) tikiladi va o'zining badiiy tashqi ko'rinishi bilan ham xuddi shunday chok bilan tikiladigan Toshkent va Farg'ona do'ppilariga umuman o'xshamaydi. Shahrisabz va Kitob do'ppilari gullarning kompozitsiyasi, gul tikish texnikasi, o'ziga xos xususiyatlari, sanab yoki rasimga qarab tikishga bog'liqligi bilan 2 guruhga bo'linadi. Birinchi turi sanab tikiladigan naqsh kompozitsiyasi — “sanama” aksariyat hollarda ularning shakli bilan bog'liq bo'lmaydi. Naqsh bo'ylama qatorlar bo'ylab birin-ketin, elementma-element joylashtiriladi. Agar u butunligicha joylashmasa, shu buyum bichilgan va tikilgan mato bo'lagining guli kabi oxiriga yetmasdan to'xtatiladi. Ikkinchi tur — do'ppi kompozitsiyasi “chizma” deb ataladi va to'laligicha do'ppining shakliga bo'ysundirilgan bo'ladi hamda doiradagi kompozitsiya kabi tuziladi. U do'ppining tepa qismi atrofida markazlashib va ikki chiziq bo'ylab markazlashgan doira bo'yicha hamda vertikal joylashadi.

Qashqadaryo va Shahrisabzda kashta tikishning “yo'rma” va “kandaxayol” usuli qabul qilingan bo'lib, kashtaning “iroqi” nusxasi keng tarqalgan [2].

1950–1960-yillardagi Shahrisabz iroqi do'ppilari.

Iroqi do'ppi Shahrisabzda keng urf bo'lgan, keyinchalik boshqa joylarga tarqalib, har bir mahalliy joyning o'ziga xos bezak usulida yaratila boshlandi [5]. Do'ppining bu turida kashta iplari sug'urilib, to'r holiga keltirilgan mato (surp)ga rangli ipak yoki ingichka tolali paxta ip bilan iroqi chok (terma yoki bosma usuli)da tikiladi (nomi shundan). Iroqi do'ppining eng yaxshi namunalari Shahrisabz va Kitob do'ppido'zlari tomonidan tayyorlanadi.

Kandaxayol — chok turi, kashtado'zlikda keng tarqalgan. Kandaxayol chokida to'shama ip tik yoki yotiq bo'ladi. 2 turi farqlanadi: to'shama ip ustidan chatiladigan chok qiyalatib ustma-ust tushiriladi, kashta tayyor bo'lganda novdadan to'qilgan savat kabi ko'rinadi; ikkinchi xilida kashtado'z birinchi qatorni oldingi kashta xili tarzida tikib chiqqach, ikkinchi va keyingi qatorlarni oldingi qator ostki qismidan o'tkazib tikadi, shu tarzda to'shama ip diagonal yo'nalishida ilon izi chiziqlari hosil qilinadi [3].

Iroqi — 1) kashtado'zlikda chok turi; sidirg'a qoplab (butun va yarim “X” shaklida) to'rga yoki arqoq va tanda iplaridan sug'urib, to'r shakliga keltirilgan matoga tikiladi. Iroqining kesma chiziqlar sanab tikiladigan sanama iroqi va matoga chizilgan naqsh-gul ustidan tikiladigan chizma iroqi turlariga bo'linadigan terma (do'ppi, jiyak va mayda buyumlar tikiladi) hamda matoga ip to'shalib, so'ng mayda choklar bilan kesib (yirik kashtalar — palak, so'zana va boshqalar) tikiladigan xillari bor. Shahrisabz kashtado'zligida iroqi chok qadimdan ma'lum bo'lgan, keyinchalik Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Surxondaryo va boshqa joylarda keng tarqalgan. Toshkent va Shahrisabz do'ppilari chok texnikasi jihatidan farq qiladi. Iroqi mujassamoti, badiiy uslubi, tayyorlanishi jihatidan farq qiladi.

Iroqi chok boshqa xalqlar (rus, ukrain, latish, tatar, boshqird, qirg'iz, tojik, qozoq va boshqalar) kashtado'zligida ham keng tarqalgan;

2. muqarnas turi; shakldor ravoq chiziqlari o'zaro kesishishi natijasida yasalgan pog'onali suyri bezak.

Ornament — bu ritmik takrorlanuvchi elementlardan tashkil topgan, buyumlar, mebel, arxitektura inshootlari va matolarni bezashga mo'ljallangan naqsh yoki bezak turi. U o'simlik, geometrik yoki hayvonlar tasviridan iborat bo'lib, badiiy va estetik funksiyani bajaradi. Asosiy maqsadi predmetlarga estetik ko'rinish berish va ular orqali ma'lum bir xalq tarixi, dunyoqarashi hamda badiiy obrazlarini ifodalashdir.

Shahrisabz va Kitob do'ppilarida aks ettiriladigan ornamentlarning semantikasi haqida fikr yuritadigan bo'lsak, ma'lumki, naqshlar bir qancha turlarga bo'linadi: islamiy naqshlar, geometrik, zoomorfik va kaligrafik naqshlar.

Islamiy naqshlar — o'simlik va gullarga asoslangan bezaklar.

O'simliksimon naqsh amaliy san'atning deyarli barcha turlarida juda keng tarqalgan. Islamiy klassik naqsh turi bo'lib, barg, gul, kurtak, tanob va boshqalardan tashkil topgan, bir-biriga ulanib takrorlanishdan hosil bo'ladigan naqshdir. Demak, naqsh chizishni o'rganishdan oldin elementlarni chizishni, qanday nomlanishini va qayerlarda ishlatilishini bilish muhim ahamiyatga ega. Barg, gul, novda, marg'ula, bofta, shukufta (shkuft), tanob, bog'lam va sirtmoq kabi naqsh elementlari mavjud bo'lib, ular tuzilishi, xarakteri va xususiyatlaridan kelib chiqib nomlanadi.

Anorgul — kashtachilik va shu singari turlarda ishlatiladigan o'simliksimon naqshdir. Anorgul naqshi qadimdan ishlatilib kelinayotgan naqsh turi bo'lib, hayotdagi to'qchilik va to'kin-sochinlik, serfarzandlilik ramzi sifatida ifodalangan. Anorgul naqsh kompozitsiyasida anorni ikki xil, ya'ni naturalistik — tabiatda qanday bo'lsa, shunday — va ba'zan stillashtirilgan naqsh uslubida tasvirlaydilar. Anor tasvirlangan bu naqshda anorning ko'pincha ichki qismini ham ko'rsatib tasvirlaydilar. O'simliksimon naqshlar esa tabiatdagi barg, band, daraxt, buta, g'uncha va boshqa narsalarning naqqosh tomonidan stillashtirib olingan shaklini ma'lum qonuniyatlar asosida takrorlashidan hosil qilinadi.

Shahrisabzning quyidagi do'ppi nusxalari bor: oftobparast (chayon nusxa), shoparchin, chopqilich, g'o'zapo'choq, lola, to'pchini, qalampir nusxa, bodring nusxa, anor nusxa va boshqalar. [Turdiqulova Sayyora Sharofovnaning suhbat, Kitob tumani Sarosiyo MFY Sarosiyo qishlog'i, +998932092384, 11.04.1966]

**Anor nusxa** – oila ramzi, ko'payish ma'nosini ifodalaydi



Gulli girih — o'simlik va geometrik naqsh elementlaridan tashkil topgan. Uning elementiga geometrik va o'simliksimon naqshlar kiradi.

**Bodom nusxa**



**Qalampir nusxa** – balo-qazodan saqlaydi.



**Popop bodom nusxa**



**Popir anor nusxa**



Ramziy naqshlar esa kabutar, sher, baliq, davlat gerbi va boshqalarni stillashtirib tasvirlangan naqsh elementlaridan tashkil topadi. Ustalar tabiatdagi gul, barg, novda, g'uncha, kabutar, tovus va boshqalarning tuzilishini, o'sish qonun-qoidalarini hamda ko'rinishini sinchiklab o'rganib, ulardan turli naqsh kompozitsiyalarini ishlash uchun har xil elementlarni stillashtirib olganlar. Chunonchi, usta gulni stillashtirib olishda uning go'zalligini qaysi holatdagi — ustidan, yonidan yoki tagidan — ko'rinishini tasvirlashni izlab topadi.

Madoxil — arabcha “ostona”, “kirish”, “eshik” ma'nolarini bildiradi. U chap-u rost takrorlanuvchi islamiy naqsh turi bo'lib, kompozitsiyada chiqish nuqtasi, ya'ni manbai, ildizi, asosi yoki o'zagi hisoblanadi. Madoxil ko'rinishi jihatidan xilma-xil bo'lib, g'uncha, lola, gul, uch barg va boshqa shakllardan iborat. Ana shu shakllarning orasiga naqqoshlar har xil gullar kiritib, o'ziga xos nom qo'yganlar [1]. Masalan: madoxili lola — g'uncha, lola shakliga yaqin qilib ishlangan madoxil naqsh turi; qo'sh madoxil — lola, g'uncha, gul va boshqa shakldagi madoxilining biri yuqoriga, biri pastga qaratib chiqilgan nusxasi; madoxili islamiy — naqshning taqsimini, asosini madoxil shakli egallovchi islamiy naqsh turi. Madoxil naqshlari arxitekturada, yog'och, ganch, tosh, mis o'ymakorligida, naqqoshlikda, kashtado'zlikda va boshqa sohalarda keng tarqalgan. Madoxil turlari tobora ko'payib bormoqda va zamonaviy binolar hamda uy-ro'zg'or buyumlarini bezashda keng qo'llanilmoqda.

Turunj arabcha “limon” degan ma'noni bildiradi. Rus tilida “medalon” deb atalib, naqshlarda kompozitsiyaning markaziga chiziladigan naqsh turidir. O'rta Osiyoda u o'ziga xos ko'rinish va mazmunga ega bo'lib, qadimdan ishlatilib kelinadi. Turunj naqshining ko'rinishi limon shaklida bo'lgani uchun u shunday deb yuritiladi. Turunj hech qanday naqshga ulanmay, muallaq turadigan kompozitsiya bo'lib, uning shakli asrlar davomida rivojlanib, boyib borgan. Uning hozirda doira, 5–10 raxli yulduz, oval, romb, ellips shakllari mavjud. Turunj nusxasi 4, 8 yoki 16 ga bo'linadi. Naqqoshlar ko'pincha to'rtburchakli kompozitsiya chetiga oddiy naqsh, ya'ni ruta ishlab, o'rtasiga turunj ishlaydilar [1]. Turunj ko'pincha devor o'rtasiga, shift markaziga, kashta va gilam markazlariga bajariladi. Usta turunj ulgisini tayyorlashda qog'ozni 4, 8 yoki 16 ga buklab, bir bo'lagiga nusxa chizadi. Shu naqsh chiziqlarini ignada teshib, so'ngra qog'oz yoyilsa, qolgan bo'laklarida ham nusxaning takrori hosil bo'ladi. Tayyorlangan turunj nusxasi kerakli yuzaga tushiriladi.

Geometrik naqshlar — to'g'ri chiziq, doira va boshqa geometrik shakllarga asoslangan naqshlardir.

Zoomorfik naqshlar — hayvon va qush shakllari tasvirlangan naqshlardir.


Zombiro'ya — boylik ramzi.



To'pchin nusxa — boylik ramzi.




Choparchin nusxa — balo-qazolardan saqlaydi.



Kaligrafik naqshlar — arab va fors yozuvi asosida chizilgan san'at asarlaridir.

Ushbu do'ppi murakkab xoch shaklidagi iroqi kashtali shakldadir. Ustki qismi oq bilan qoplangan bo'lib, qizil va yashil rangli iplarda arab yozuvi tushirilgan. Shahrisabz, XIX asr.



Erkaklar do'ppisi konus shaklida bo'lib, trapetsiya va uchburchak shakllar bilan pitalangan. Atrofi jiyak tasmasi bilan hoshiyalangan. Astari fabrika paxta matosidan tayyorlangan. Qashqadaryo, 1959-yil, XX asr boshi namunasi asosida qayta tiklangan [7].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'zbek milliy hunarmandchiligi sohalaridan biri bo'lmish do'ppichilikka keyingi yillarda e'tibor yanada kuchayganini ko'rishimiz mumkin. Masalan, milliy hunarmandchilik bilan bog'liq turli respublika va xalqaro festivallar tashkil etilishi, Andijon do'ppisining ro'yxatga olinishi, do'ppido'zlikka oid maxsus muzeylarning tashkil qilinishi, respublikaning barcha davlat tashkilotlarida haftaning juma kuni "Milliy liboslar kuni" deb e'lon qilinishi va boshqalar shular

jumlasidandir. Qashqadaryo do‘ppido‘zligiga oid juda ko‘p ornamentlar mavjud. Yuqorida ularning ayrimlari to‘g‘risida olib borilgan dala ekspeditsiyasi asosida ma’lumot berilgan bo‘lsa, hali o‘rganilmaganlari ham mavjud. Ushbu natijalar o‘zbek lingvistikasining rivojlanishiga katta xizmat qiladi va o‘z navbatida milliy o‘zlikni anglash, o‘zbekona qadriyatlarni hurmat qilish hamda yosh avlodga ulug‘ajdodlarimiz merosini yetkazish kabi muhim maqsadlarga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Jabborov R. R. Amaliy bezak san’ati fanidan o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: LESSON PRESS, 2023. – B. 189.
2. Sodiqova N., G‘aybullayeva Y. O‘zbek milliy bosh kiyimlari XIX–XX asrlar. – Toshkent: Sharq, 2014. – B. 226–238.
3. O‘zbekiston hunarmandchiligi va amaliy san’ati. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2016. – B. 270–494.
4. O‘zbek milliy kiyimlari XIX–XX asrlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2006.
5. O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi to‘plami. 2-qism: Etnografik fond. – Toshkent: Silk Road Media, 2021. – B. 440.
6. O‘zbekiston madaniy merosi. O‘zbekiston muzeylari va xususiy kolleksiyalari materiallari bo‘yicha an’anaviy o‘zbek liboslari. 2-qism. – Toshkent: Silk Road Media, 2025.
7. Абдуллаев Т. А., Хасанова С. А. Одежда узбеков (XIX – начало XX в.). – Ташкент: Фан Узбекской ССР, 1978. – С. 115–145.
8. Сухарева О. А. Древние черты в головных уборах народов Средней Азии // Среднеазиатский этнографический сборник. – Москва, 1954. – Вып. I. – С. 299–353.